

**AVSTRIYA DIVERSIYON INSTITUTI VA O‘ZBEKISTON JINOYAT-  
PROTSESSUAL HUQUQIDA UNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI**

**Ochilova Dilnura Bekzod qizi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro huquq” fakulteti 2-kurs talabasi

[dilnuraochilova057@gmail.com](mailto:dilnuraochilova057@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20116168>

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Avstriya jinoyat-protsessual huquqidagi diversion institutining mazmuni, qo‘llash shartlari va protsessual oqibatlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Avstriyada diversion ishni sud hukmisiz yakunlash imkonini beradigan muqobil mexanizm bo‘lib, u faqat huquqiy shartlari aniq belgilangan holatlarda qo‘llanadi. O‘zbekistonda esa ayblilik masalasini hal qilmay turib ishni tugatish, yarashuv munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish hamda javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketishi kabi institutlar mavjud bo‘lsa-da, ular diversionning yagona, tizimli modeli sifatida shakllanmagan. Maqolada aynan shu farqlar asosida O‘zbekiston uchun institutni takomillashtirish bo‘yicha takliflar beriladi.

**ИНСТИТУТ ДИВЕРСИИ В АВСТРИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО ВНЕДРЕНИЯ  
В УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО УЗБЕКИСТАНА**

Очилова Дильнур Бекзод кизи, студентка второго курса факультета “Международное право” Университета мировой экономики и дипломатии

[dilnuraochilova057@gmail.com](mailto:dilnuraochilova057@gmail.com)

**Аннотация**

В данной статье проводится сравнительный анализ института диверсии в австрийском уголовно-процессуальном праве и соответствующих механизмов, предусмотренных действующим уголовным и уголовно-процессуальным законодательством Республики Узбекистан. В Австрии диверсия является альтернативным способом завершения уголовного производства без вынесения обвинительного приговора и применяется при наличии четко установленных законом условий. В Узбекистане существуют близкие по правовой природе институты, такие как прекращение дела без решения вопроса о виновности, освобождение от уголовной ответственности в связи с примирением и истечением сроков давности, однако они не образуют единой системы диверсии. На основе этого делаются предложения по совершенствованию национального законодательства.

**THE DIVERSION INSTITUTE IN AUSTRIA AND THE PROSPECTS FOR ITS  
IMPLEMENTATION IN THE CRIMINAL PROCEDURAL LAW OF UZBEKISTAN**

Ochilova Dilnura Bekzod qizi, a second-year student at the Faculty of International Law,  
University of World Economy and Diplomacy

[dilnuraochilova057@gmail.com](mailto:dilnuraochilova057@gmail.com)

**Annotation**

This article provides a comparative analysis of the diversion institute in Austrian criminal procedure and the closely related mechanisms currently found in the criminal and criminal-procedure law of the Republic of Uzbekistan. In Austria, diversion is an alternative way to conclude criminal proceedings without a formal conviction, and it can be used only when the statutory conditions are met. In Uzbekistan, there are related mechanisms such as terminating a case without deciding guilt, release from criminal liability due to reconciliation, and expiration of the limitation period; however, these do not yet form a single structured diversion model. The article therefore proposes directions for legislative improvement in Uzbekistan.

**Kalit soʻzlar:** diversion, jinoyat-protsessual huquq, Avstriya StPO, yarashuv, ayblilik masalasini hal qilmay turib ishni tugatish, Oʻzbekiston Jinoyat-protsessual kodeksi, rehabilitatsiya, huquqiy taqqoslash.

### KIRISH

Avstriyada diversion StPOning 11-bobida “Rücktritt von der Verfolgung (Diversion)” sifatida tartibga solinib, prokuratura va ayrim holatlarda sudga ham tatbiq etiladi; asosiy shakllari pul toʻlovi, jamoat foydasiga ishlar, probatsiya va Tatausgleich hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar boʻyicha JGGning 7–8-moddalari maxsus qoida va cheklovlarni belgilaydi. Avstriya rasmiy statistikasi 2022-yilda diversionsverfahrenlarning taxminan 83 foizi muvaffaqiyatli yakunlanganini koʻrsatadi. Oʻzbekiston qonunchiligida esa alohida “diversion” nomli tizim boʻlmas-da, JPK 84-moddasi va JK 66, 66<sup>1</sup>-moddalari ayrim oʻxshash natijalarni beradi: ayblilik masalasi hal qilinmasdan ishni tugatish, yarashuv, pushaymonlik va zararni qoplash asoslari mavjud.

Diversion instituti jinoyat protsessida klassik jazolash modeliga muqobil yondashuv boʻlib, jinoyat ishini sud hukmigacha olib bormasdan, qonun bilan belgilangan muayyan majburiyatlar evaziga yakunlash imkonini beradi. Avstriya StPOsining amaldagi tahririda diversionning asosiy qismi 198-moddada mustahkamlangan boʻlib, prokuratura “Rücktritt von der Verfolgung” yoʻli bilan ishni toʻxtatishi mumkin; 199-modda esa xuddi shu qoidalarni sudga ham tatbiq etib, ayblov qoʻyilganidan keyin ham sudga diversionni qoʻllashga ruxsat beradi. Qonunda pul toʻlovi, jamoat foydasiga ishlar, probatsiya va Tatausgleich kabi toʻrtta asosiy yoʻl koʻrsatilgan. Shu bilan birga, 198-moddadagi cheklovlar ham aniq: jinoyat besh yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanmasligi, ayb ogʻir hisoblanmasligi va oʻlim oqibati boʻlmasligi kerak.

Avstriya tajribasining muhim jihati shundaki, diversion faqat normativ imkoniyat emas, balki amaliy jihatdan ham faol ishlatiladigan institutdir. Avstriya parlamentining 2022-yilgi Sicherheitsberichtida 29 101 ta yakunlangan diversion ishi qayd etilgan va ulardan 24 157 tasi “endgültiger Rücktritt” bilan, yaʼni muvaffaqiyatli yakunlangan. Xuddi shu hisobotda barcha diversion ishlarning qariyb 83 foizi muvaffaqiyatli tugagani koʻrsatiladi; pul toʻlovi boʻyicha muvaffaqiyat darajasi qariyb 86 foizga, jamoat foydasiga ishlar boʻyicha esa taxminan 80 foizga teng boʻlgan. 2018-yilgi hisobot ham pul toʻlovi, SMG yoʻnalishi va jamoat foydasiga ishlarda muvaffaqiyat darajasi taxminan besh holatdan toʻrtida ekanini qayd etadi. Bu raqamlar diversionning amaliy ishlashini va uning jazolashdan koʻra ijtimoiy tiklashga yoʻnaltirilganini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston qonunchiligida esa diversion atamasi alohida institut sifatida emas, balki maʼlum moddalarda tarqoq tarzda namoyon boʻladi. JPK 84-moddasi ayblilik masalasini hal qilmay turib ishni tugatish asoslarini sanab oʻtadi: muddat oʻtishi, amnistiya, vafot, ayni ayblov boʻyicha kuchga kirgan hukm yoki ajrim, shikoyat bilan qoʻzgʻatiladigan ishda shikoyatning yoʻqligi, javobgarlikka tortish yoshiga yetmaganlik hamda JKning tegishli moddasida amalda pushaymon boʻlish, zararni qoplash yoki oqibatlarni bartaraf etish asosida javobgarlikdan ozod qilish nazarda tutilgan holatlar. Shu moddaning toʻrtinchi qismida jabrlanuvchi JK 66<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar boʻyicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi

bilan yarashsa, ish ayblilik haqidagi masala hal qilinmasdan tugatilishi mumkinligi ko'rsatilgan. JK 66 va 66<sup>1</sup>-moddalarida esa amalda pushaymon bo'lish va yarashuv asosida javobgarlikdan ozod qilishni belgilaydi. Bu normalar diversionga funksional jihatdan yaqin, biroq tizimli va birlashtirilgan modelni hosil qilmaydi.

#### **MATERIALLAR VA USULLAR**

Ushbu maqola normativ-huquqiy tahlil va qiyosiy-huquqiy usul asosida yozildi. Asosiy manbalar sifatida Avstriyaning RIS bazasidagi amaldagi Strafprozessordnung 1975 va Jugendgerichtsgesetz 1988 matnlari, O'zbekistonning LexUZ bazasidagi Jinoyat-protsessual kodeksi hamda Jinoyat kodeksining amaldagi tahrirlari, shuningdek Avstriya parlamentining Sicherheitsbericht 2018 va Sicherheitsbericht 2022 hisobotlari olindi. Tanlangan manbalar rasmiy davlat hujjatlari bo'lgani uchun bu maqoladagi xulosalar aynan huquqiy matnlar va rasmiy statistikaga tayandi. Shu sababli, quyida beriladigan tavsiyalar subyektiv qarash emas, balki amaldagi qonunchilikdagi bandlar va rasmiy ma'lumotlar orasidagi bog'liqlikdan kelib chiqadi.

Tahlilda avval Avstriya huquqidagi diversionning elementlari ajratib olindi: qo'llanish shartlari, chora turlari, prokuror va sud vakolatlari, yoshlar bo'yicha maxsus qoidalar va amaliy natijalar. Keyin O'zbekiston qonunchiligidagi analog normalar — JPK 84-moddasi hamda JK 66 va 66<sup>1</sup>-moddalarida — shu elementlar bilan solishtirildi. So'ngra mavjud bo'shliq aniqlanib, O'zbekistonda diversionni alohida normativ institut sifatida joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvda faqat rasmiy manbalardagi ochiq ma'lumotlardan foydalanildi; qo'shimcha sharhlar esa mavjud qoidalarni tizimlashtirish va qiyosiy umumlashtirishdan iborat bo'ldi.

#### **NATIJALAR**

Avstriya StPO 198-moddasi diversion uchun asosiy eshik hisoblanadi. Unda prokuratura, agar ish bo'yicha holatlar yetarlicha aniqlangan bo'lsa va 190–192-moddalar bo'yicha oddiy tugatish asoslari mavjud bo'lmasa, lekin jazo tayinlash zarurati bo'lmasa, quyidagi choralar asosida ishni davom ettirmasligi mumkinligi belgilangan: pul to'lovi, jamoat foydasiga ishlar, probatsiya va majburiyatlar, yoki Tatausgleich. Shu bilan birga, 198-moddada aniq filtrlar mavjud: jinoyat besh yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanmasligi, ayb og'ir bo'lmasligi va qilmish o'limga olib kelmagan bo'lishi kerak. 199-modda esa bu yondashuvni sud bosqichiga ham kengaytirib, ayblov qo'yilganidan keyin ham sudga StPOning 198–209b moddalarida bo'yicha harakat qilish imkonini beradi.

Pul to'lovi bo'yicha 200-modda muhim aniqlik kiritadi: to'lov Federal budget foydasiga amalga oshiriladi, u 180 tagacha kunlik stavkalariga teng summani va kerak bo'lsa sud xarajatlarini oshmasligi kerak, odatda 14 kun ichida to'lanadi, ayrim hollarda esa olti oygacha to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berilishi mumkin. Jamoat foydasiga ishlar 201 va 202-moddalarda tartibga solingan bo'lib, ular bepul bajariladi, uzrli sabablar bo'lmasa, zarar qoplash yoki oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'lanishi mumkin. 202-moddada odatiy kattalar uchun jamoat ishlari kuniga 8 soat, haftasiga 40 soat va jami 240 soatdan oshmasligi kerakligi belgilangan. Bu qoidalar diversionning "jazoni yengillashtirish" emas, balki shaxsning javobgarligini amaliy tarzda namoyon qiladigan muqobil tartib ekanini ko'rsatadi.

Yoshlar bo'yicha JGG 7-moddasi StPOning diversion bo'yicha qoidalarini yoshlar jinoyatlariga moslab qo'llaydi. 7-modda shuni ko'rsatadiki, agar ishning holatlari yetarli darajada aniqlangan bo'lsa, 190–192-moddalar bo'yicha oddiy tugatish asoslari bo'lmasa va jazo zarurati ko'rinmasa, pul to'lovi, jamoat foydasiga ishlar, probatsiya yoki Tatausgleich qo'llanishi mumkin. 8-modda esa yoshlar uchun alohida himoya choralari beradi: pul to'lovi faqat voyaga yetmagan ayblanuvchi o'z hayotiy taraqqiyotiga zarar yetkazmasdan tasarruf eta oladigan mablag'dan amalga oshirilsa taklif qilinadi; jamoat foydasiga ishlar esa kuniga 6 soat, haftasiga

20 soat va jami 120 soatdan oshmasligi kerak. Shunday qilib, Avstriya huquqi diversionni yoshga, jinoyat og'irligiga va shaxsning ijtimoiy holatiga mos ravishda differensiallashtiradi.

Rasmiy statistika diversionning keng qo'llanishini tasdiqlaydi. Avstriya parlamentining 2022-yilgi Sicherheitsberichtida barcha yakunlangan diversion ishlarining taxminan 83 foizi muvaffaqiyatli tugagani ko'rsatilgan. Xuddi shu hisobotda 29 101 ta diversion ishi qayd etilib, 24 157 tasi yakuniy voz kechish bilan tugagani ko'rsatiladi. 2018-yilgi hisobot esa pul to'lovi, SMG yo'nalishi va jamoat foydasiga ishlarda muvaffaqiyat darajasi taxminan 83–86 foiz atrofida ekanini bayon qiladi. Hisobotlarda, shuningdek, 1999-yildagi jinoyat-protsessual islohotidan beri NEUSTART tashkiloti diversion bilan bog'liq ijtimoiy-interventsion xizmatlarni butun Avstriya bo'yicha amalga oshirib kelayotgani qayd etilgan. Bu ma'lumotlar institutning faqat normativ emas, balki infratuzilmaviy jihatdan ham mustahkam ekanini ko'rsatadi.

O'zbekistonning amaldagi huquqi esa alohida diversion mexanizmini emas, balki unga yaqin bo'lgan individual asoslarni nazarda tutadi. JPK 84-moddasi ayblilikni hal qilmay turib ishni tugatish asoslarini beradi: muddat o'tishi, amnistiya, vafot, ayni ayblov bo'yicha oldingi kuchga kirgan qarorlar, shikoyat bilan qo'zg'atiladigan ishda shikoyatning yo'qligi, javobgarlik yoshiga yetmaslik va JKda ko'rsatilgan pushaymonlik yoki zararning qoplanishi asosida javobgarlikdan ozod qilish. Shu moddaning 2-qismida ayrim hollarda ishni umumiy tartibda davom ettirish mumkinligi ham aytiladi, agar ayblanuvchi yoki uning yaqin qarindoshlari shuni talab qilsa. JK 66-modda amalda pushaymonlik asosida javobgarlikdan ozod qilishni, 66<sup>1</sup>-modda esa yarashuv asosida javobgarlikdan ozod qilishni belgilaydi. Demak, O'zbekiston tizimida diversionning ayrim funksional bo'laklari allaqachon mavjud, ammo ular alohida institut sifatida birlashtirilmagan.

#### **MUHOKAMA**

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Avstriya diversion modeli uchta tayanch ustunga ega: aniq shartlar, muqobil chora katalogi va kuchli institutsional ijro. Shu modelning kuchi shundaki, u sud ishini qisqartirishni maqsad qilibgina qolmay, jabrlanuvchi manfaatini, ayblanuvchining ijtimoiy qayta moslashuvini va davlat resurslarini tejamkor ishlatishni birlashtiradi. Rasmiy statistikada muvaffaqiyat darajasining yuqoriligi, ayniqsa pul to'lovi va jamoat ishlari bo'yicha, bu yondashuvning amaliy jihatdan ishlashini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, JGG 8-moddasidagi yoshlar uchun cheklovlar O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega, chunki voyaga yetmaganlar bilan ishlashda proportsionallik va hayotiy taraqqiyotni asrash tamoyillari muhim.

O'zbekiston tomonida esa JPK 84-moddasi va JK 66, 66<sup>1</sup>-moddalari amalda muhim asos yaratadi. Biroq ular tarqoq, alohida maqsadli tizim sifatida shakllanmagan. JPK 84-moddasi ayblilik masalasini hal qilmay turib tugatishning turli asoslarini beradi, lekin protsessual bosqichlar, chora turlari, bajarish muddati, nazorat organi va bajarilmagan taqdirda oqibatlarini bir joyda batafsil tartibga solmaydi. Shu sababli, amaliyotda bir xil holatlar turlicha hal bo'lishi, ayrim hollarda esa jabrlanuvchi manfaatlari yoki ayblanuvchining roziligi bilan bog'liq protsessual kafolatlar yetarlicha standartlashmagan bo'lishi mumkin. Bu xulosa normativ matnlarning o'zidan kelib chiqadi: qonunda ayrim komponentlar bor, ammo ular Avstriyadagi kabi bir tizimga birlashmagan.

Shu asosda O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l — yangi jinoyat-protsessual bo'lim kiritishdir. Bu bo'limning markaziy maqsadi "ishni sudga yubormasdan tugatish" emas, balki huquqbuzarlikka javobni individual, tezkor va tiklovchi shaklda berish bo'lishi kerak. Normativ mezon sifatida Avstriya tajribasidagi kabi engil va o'rtacha og'ir jinoyatlar, besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadigan qilmishlar, og'ir ayb bo'lmasligi, o'lim oqibatining yo'qligi, ayblanuvchining ixtiyoriy roziligi va zararning qoplanishi kabi shartlarni qo'yish mumkin. Shu bilan birga, JK 66 va 66<sup>1</sup>-moddalaridagi amaldagi institutlar yangi

bo'limning moddiy-huquqiy asosi sifatida xizmat qilishi mumkin. Bunday konstruktsiya mavjud normalarni bekor qilmaydi, aksincha, ularni protsessual jihatdan tizimlashtiradi.

Diversion chora-tadbirlari O'zbekistonda ham moslashtirilishi mumkin. Avstriyadagi pul to'lovi, jamoat foydasiga ishlar, probatsiya va Tatausgleich tajribasi milliy sharoitda zarar qoplash, jamoat ishlarini bajarish, ijtimoiy moslashuv dasturlari va jabrlanuvchi bilan mediatsiya ko'rinishida qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa yoshlar ishlarini bo'yicha JGG 8-moddasi analogi sifatida voyaga yetmaganlarga nisbatan vaqt va hajm bo'yicha qat'iy limitlar belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa jazo va tarbiyaviy ta'sir o'rtasidagi muvozanatni saqlaydi. Avstriya amaliyotida NEUSTART tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy ishlar modeli ko'rsatganidek, bunday institutni faqat normada emas, balki alohida xizmat va nazorat tizimi bilan birga qurish kerak.

Protsessual jihatdan O'zbekiston uchun muhim qadam — prokuror va sudning vakolatlarini aniq ajratishdir. Avstriyada prokuratura va sudga bir xil diversionshunoslik vakolati berilgan, sud esa ayblov qo'yilgach ham diversiyani qo'llashi mumkin. O'zbekiston uchun ham shu model foydali bo'lishi mumkin: tergov yakunida prokuror tavsiya beradi, ayblanuvchi rozilik bildiradi, jabrlanuvchi ishtiroki ta'minlanadi va nazorat vakolatli organ tomonidan yuritiladi. Bajarmaslik holatida ish oddiy tartibda davom etishi kerak. Bunday yondashuv protsessni murakkablashtirmaydi, aksincha, hozir mavjud bo'lgan parchalanib ketgan asoslarni yagona tizimga soladi.

#### **XULOSA**

Avstriya diversion instituti jinoyat protsessida muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan, qonun bilan puxta tartibga solingan va amaliyotda faol ishlaydigan modeldir. Uning kuchi shundaki, u og'ir bo'lmagan jinoyatlar bo'yicha javobni sud hukmigacha bo'lgan bosqichda individuallashtiradi, jabrlanuvchi zararini qoplashga urg'u beradi va ayniqsa yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy tiklashga xizmat qiladi. O'zbekiston qonunchiligida esa JPK 84-moddasi va JK 66, 66<sup>1</sup>-moddalari bu yo'nalishning ayrim elementlarini allaqachon tan olgan, biroq ular yagona "diversion" tizimiga birlashtirilmagan. Shu sababli, alohida protsessual bo'lim, mezonlar, chora-tadbirlar, nazorat va statistik monitoringni nazarda tutuvchi islohot amaliy jihatdan o'rinli ko'rinadi.

Taklif etilayotgan model O'zbekistonning mavjud huquqiy bazasiga zid emas, aksincha, uni tizimlashtiradi. Eng muhim natija shuki, bunday institut sud yukini kamaytirishi, jabrlanuvchi huquqlarini yaxshiroq himoya qilishi, ayblanuvchini ijtimoiy javobgarlikka jalb etishi va huquqni muhofaza qilish organlarining resurslarini yanada oqilona taqsimlashga yordam berishi mumkin. Avstriya tajribasidagi rasmiy statistika diversionshunoslikning samaradorligini ko'rsatgani uchun, O'zbekistonda ham shunga o'xshash tizim joriy etilishi qonunchilikni modernizatsiya qilish yo'lidagi mantiqiy qadam bo'lib xizmat qiladi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, <https://lex.uz/mact/-111453>
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, <https://lex.uz/docs/111460>
3. Avstriya Jinoyat kodeksi, <https://policehumanrightsresources.org/content/uploads/2016/08/Criminal-Code-Austria-1998.pdf?x19059>
4. Avstriya Jinoyat-protsessual kodeksi, [https://www.unodc.org/cld/uploads/res/document/aut/1974/austrian-criminal-procedural-code-2014\\_html/Austria\\_Criminal\\_Procedure\\_Law\\_GER\\_2014.pdf](https://www.unodc.org/cld/uploads/res/document/aut/1974/austrian-criminal-procedural-code-2014_html/Austria_Criminal_Procedure_Law_GER_2014.pdf)
5. Avstriyada divisiyon institut haqida, <https://lukasstaffler.com/diversion-as-a-strategic-option-in-criminal-proceedings-in-austria/>